


Joriy yilning 30-yanvar sanasida akademik litseyda 201-202-guruh o'quvchilarining ota onalari bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi

Yig'ilishini akademik litsey ijrochi direktori Dilshodxon Islomov olib bordi. Yig'ilishda yil sarhisobi bo'yicha o'quvchilarning **ikki yil davomida erishgan yutuqlari, o'quv mashg'ulotlariga qatnashish davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhokama qilindi.** Ushbu guruhlarda o'zlashtirishi sust o'quvchilarning ota-onalari, guruh rahbarlari va fan o'qituvchilariga tanbeh berildi. **3 oy muddatda** ota-onalar bilan hamkorlikda ushbu o'quvchilarni ko'zlangan maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlarni amalga oshirish bo'yicha alohida ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilish yakunida o'zining bilimi, iqtidori va namunali xulqi-odobi bilan alohida o'rnak ko'rsatgan o'quvchilarning ota-onalari Tashakkurnoma bilan taqdirlandi.









SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati